

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF TEACHING SPECIAL SUBJECTS IN SECONDARY SCHOOLS

Raupova Rahimaxon Kholmatovna

Fergana for people with disabilities

Specialized vocational school

Physics teacher

Qodirova Dilnozaxon Abdullajonovna

Fergana for people with disabilities

Specialized vocational school

Chemistry teacher

Annotation: The article presents ideas on the use of computer technology in the implementation of modern pedagogical technologies for teaching specific subjects in secondary schools.

Keywords: Object of study, organic communication, integration, information society, exact sciences.

Bugungi axborotlashtirilgan jamiyat asrida axborot texnologiyalarining ro'li va o'rni kundan-kunga o'sib bormoqda, Hamda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Axborot lotincha "information" so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, biron narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi. Axborotlar ustida ish olib borish ularni uzatish va foydalanuvchiga axborotlarni yetkazish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Aniq fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llamasdan turib, o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida samarali natijalarga erisha olmaydi. Ammo bunda ta'limning maqsad va mazmuni, usul va vositalari hamda tashkiliy shakllarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda aniq fanlarni o'qitishda kompyuterlardan ta'lim tizimida asosan 4 yo'nalishda foydalanilmoqda:

- O'rganish obekti sifatida;
- O'qitishning texnik vositalari sifatida;
- Ta'limni boshqarishda;
- Ilmiy pedagogik izlanishda;

Aniq fanlarni o'qitishda kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p. 1. Aniq fan oqituvchilarining ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; 2. Mashq qilinadigan masalalar soni oshadi; 3. O'quvchilarning ishlash surati jadallashadi; 4. Kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda, darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; 5. Kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va u bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi. Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari boshqa fanlar bilan uzviy a'loqadorlikka ega bo'lishi kerak. Chunki davr talablaridan biri hisoblanadi. Kimyo, fizika, matematika, biologiya, adobiyot, tasviriy san'at, horijiy tillar va boshqa fanlarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari integratsiya orqali bog'lash yangicha o'qitish metodikasini hosil qiladi va ta'lim sifatini jadal rivojlanishiga olib keladi. Har bir aniq fan o'qituvchisi dars jarayonining tashkiliy qismida o'z faniga oid dunyo miqyosida ro'y berayotgan yangiliklarini, erishilgan yutuqlarni, ixtirolarni to'plab, 45 minutlik dars jarayonining tashkiliy qismida 5-minutlik slayd yoki video rolik tarzida o'quvchilarga tadbqiq etish kerak. Har kuni shu tariqa 5-minutlik slayd yoki video rolik o'quvchining har bir fanga qiziqishini, dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlashini rivojlantiradi va diqqatini barqarorlashtiradi. Bu tizim joriy etilsa aniq fan pedagoglarning o'z ustida ishlashi oshib boradi. Bu jarayon pedagogdan doimiy izlanishni talab etadi. Darsda pedagog o'quvchilarga ilmiy bilim berish bilan cheklanib qolmay, fanga oid dunyoviy bilimlarni ham beradi. Masalan, biologiya fanidan yangi topilgan hayvon, o'simlik, dunyo bo'yicha

biologiya fanida yuz beryotgan o'zgarishlarni bilish fanga bo'lgan munosabatini ijobiy tarafga o'zgartiradi. Geografiya darsida o'quvchilarga, o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar, yangi mintaqa paydo bo'lgani, suv toshgani shu kabi ma'lumotlar fan bo'yicha dunyo habarlari bilan ham nafas bo'lib turadi. Aniq fan o'qituvchi har bir yangi darsida yangi slayd yoki video rolik qilishi talab etadi. Bunday jarayon davomiy bolishi o'quvchi tassavur va diqqatini barqorolashtirib rivojlangan mamlakatlar oquvchilari bilan bilimlari teng bo'lishiga malium bir foiz ta'sir etmay qolmaydi. Bu qilingan slayd va videolarni ko'rsatish uchun proektor va elektron doskalardan foydalanilsa darsni yanada samarali o'tishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida, rivojlangan davlatlarga elektron doskalar kirib kelgan va shu qurilma orqali ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Aniq fan o'qituvchi dars o'tish jarayonida o'quvchilarni darsga jalb qila olishi lozim. Elektron doska yordamida o'quvchilarni e'tiborini darsga jalb qilish oson kechadi. Elektron doskada o'tilayotgan dars har bir o'quvchi uchun tushunarli bo'ladi. Chunki doskadan foydalanib dars o'tishda turli xil multimediali elektron qo'llanmalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Grafik, diagramma va tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni ko'rib tushunish va yodda saqlash samarali hisoblanadi. Aniq fan o'qituvchisi o'tayotgan ma'ruzasida biror bir misol yoki muammoli vaziyatni ajratib ko'rsatish kerak bo'lsa turli xil rangli qalamlar bilan bu ishni amalga oshirish mumkin. Hozirgi kunda maktab o'quvchi to'qqiz oylik oquv jarayonini tugatib, keyingi ta'lim bosqichiga o'tish jarayoni o'rtasidagi 3 oy ta'til vaqtida unga kitob berilmaydi. Mana shu oylarda o'quvchi fan kitoblari bilan tanishib chiqsa, keyingi o'quv yillarida, aniq fanni o'zlashtirishi yengillashadi. Elektron darsliklar ishlab chiqilib amalda qo'llanilsa bu muommoga yechib bo'ladi va bu kitoblar bizga (telefon, kompyuter) qurilmani ichida butun fanlardan kitoblarni jamlab aniq fan kutubxonamizni hosil qiladi. Bunday deb kitoblarni yoq qilish emas balki kitoblarni ham ishlab chiqarishni kengaytirishimiz kerak.

Adabiyotlar

1. Mamatov J., Parmanov A. Planimetrik masalalarni zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o'qitishning samaradorligi haqida //Журнал математики и информатики. – 2021. – Т. 1. – №. 2.
2. Axmatovna, M. M., & Narmuradovna, N. S. (2020). Aniq fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar. *Science and Education*, 1(2).
3. Begbutayev A. Kasbiy bilimlarni oshirishda pedagogik dasturiy vositalarni tadbqiq etish //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.